YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

# YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 3-mart, № 8 (8026)

*YER YUZIDAGI HAR QAYSI JAMIYATNING MADANIY DARAJASI UNING AYOLLARGA BO‘LGAN MUNOSABATI BILAN BELGILANADI.*

*Shavkat MIRZIYOYEV*



**Bayram tabrigi**

## AYOL QADRI — DAVLAT E’TIBORINING BEQIYOS NAMUNASI

***81 mingdan ortiq bekobodlik xotin-qizlarning manfaatlarini ta’minlash yo‘lida tizimli ishlar olib borilmoqda.***

***Aziz va muhtarama bekobodlik xotin-qizlar, qadrli opa-singillar!***

Avvalo, sizlarni kirib kelayotgan bayram – 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan samimiy muborakbod etaman. Sizlar oilaning tayanchi, jamiyatimizning ma’naviy ustuni, farzandlarimiz kamolotining muqaddas poydevorisiz.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, iqtisodiy va ijtimoiy faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar markazida, eng avvalo, inson qadri, uning sha’ni va manfaatlari turibdi. Bu jarayonda ayollarning faolligi va tashabbuskorligi muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda.

Bekobod tumanida bugungi kunda 81 295 nafar xotin-qiz istiqomat qiladi. Ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy himoyasini ta’minlash, bandlik va tadbirkorlikka keng jalb etish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

“Ayollar daftari” orqali 6 215 nafar opa-singillarimiz manzilli qo‘llab-quvvatlanmoqda. 2025-yil davomida 1 237 nafar xotin-qizga 927 million 750 ming so‘m miqdorida moddiy yordam ajratildi. Ushbu mablag‘lar ayollarimizning turmush sharoitini yaxshilash, og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish, tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish, yosh qizlarimizni ta’limga keng jalb etish, ularning iqtidor va salohiyatini yuzaga chiqarish bo‘yicha ham amaliy ishlar izchil davom etmoqda. Har bir ayolning jamiyatdagi munosib o‘rnini ta’minlash – bizning eng muhim vazifamizdir.

***Muhtarama ayollar!***

Sizlarning sabr-bardoshingiz, matonatingiz va fidoyiligingiz tufayli oilalar mustahkam, mahallalar obod, jamiyat barqarordir. Sizlar nafaqat mehr va muhabbat timsoli, balki taraqqiyot va yangilanish jarayonining faol ishtirokchisiz. Ishonchim komilki, bekobodlik opa-singillar bundan buyon ham o‘zining tashabbuskorligi, mehnatsevarligi va yuksak mas’uliyati bilan tumanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shishda davom etadi.

Fursatdan foydalanib, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, farzandlaringizga ulkan zafarlar tilayman.

Bayramingiz muborak bo‘lsin, aziz va muhtarama xotin-qizlar!

**Xurshida QURBONOVA,**
**Bekobod tuman hokim o‘rinbosari,**
**Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i**

**Bag‘ishlov**

## SIZNI SEVAMIZ

*Jannatning bog‘idan biz sizni saylab,*
*Olganmiz sevgingiz yurakka joylab.*
*Siz gulsiz, biz sizni asrab-avaylab,*
*Mehr yaprog‘iga o‘rab sevamiz.*

*Onalarga berib davra to‘rini,*
*Sizga bag‘ishladik yurak qo‘rini.*
*Qasida, qo‘shiqning sara, zo‘rini*
*Aytib, davrangizda yayrab sevamiz.*

*Dunyo shoirlari she’r bitdilar xo‘p,*
*Ular izingizda g‘ariblar to‘p-to‘p.*
*Sizga sog‘inchimiz yulduzlardan ko‘p,*
*Malikdan sizga baxt so‘rab sevamiz.*

*Biringiz Zuhrosiz, biringiz Zuxal,*
*Suluvdan suluvsiz, go‘zaldan go‘zal.*
*Biz halak she’r bitib yo to‘qib g‘azal,*
*Bitta shoirlikka yarab sevamiz.*

*Zamon keldi sizni sevmoq zamoni,*
*Siz yurgan go‘shalar — gullar makoni.*
*Oy, yulduz bo‘lib siz bezab samoni,*
*Sizga — samolarga qarab sevamiz.*

*Siz borsiz — bizlarga yashamoq sharaf,*
*Qalbni poyingizga to‘shamoq sharaf.*
*Qarang, bahor keldi — qo‘shaloq sharaf,*
*Bizga sizni sevmoq sharaf — sevamiz!*

**Nurali JALIL**

## YUKSAK E’TIROF MUBORAK!

**Xushxabar**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, Bekobod tumanidagi “Boqiyeva Nazira” fermer xo‘jaligi rahbari Nazira Boqiyeva “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi.

Mazkur yuksak mukofot — ko‘p yillik samarali mehnat, fidoyilik va yurt ravnaqi yo‘lida amalga oshirilgan munosib xizmatlarning e’tirofidir.

Tumandoshimiz Nazira Boqiyevani ushbu sharafli mukofot bilan samimiy tabriklaymiz! Kelgusidagi faoliyatlarida ulkan muvaffaqiyatlar, mustahkam sog‘lik va yanada yuksak marralar tilaymiz.

**Tahririyat**

*Yangi Bekobod — bunyodkorlik manzili*

# YANGILANAYOTGAN MAHALLA – YUKSALAYOTGAN JAMIYAT






Bekobod tumanida Prezidentimizning tegishli qarorlari asosida keng ko‘lamli qurilish va bunyodkorlik ishlari izchil davom etmoqda. Mamlakatimizda 2026-yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilinishi hududlarda yangilanish va taraqqiyot jarayonlariga yangi sur’at bag‘ishladi.

Bugungi kunda Bekobod tumanida mahallalar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, ijtimoiy obyektlarni zamonaviy talablar asosida barpo etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.



2025–2026-yillarda umumiy hisobda 23 ta mahalla binosini qayta qurish rejalashtirilgan bo‘lib, shundan 2025-yilda 4 ta, 2026-yilda esa 9 ta mahalla binosi foydalanishga topshirildi.

Jumladan, Qo‘shtamg‘ali mahallasi ham yangidan barpo etilib, kuni kecha uning tantanavor ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Hududda infratuzilma tarmoqlari to‘liq yangilanib, ko‘chalar obodonlashtirildi, ijtimoiy obyektlar va jamoat joylari zamonaviy qiyofaga keltirildi. Mahalla markazida aholiga qulay xizmat ko‘rsatish tizimi yaratilib, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash uchun zarur sharoitlar shakllantirildi.

Bunyodkorlik ishlari nafaqat hududning tashqi ko‘rinishini o‘zgartirmoqda, balki aholining turmush darajasini yaxshilash, mahalla muhitida o‘zaro hamjihatlik va birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Mahallalarda amalga oshirilayotgan yangilanishlar yurtimizda inson qadri ulug‘lanayotganining amaliy ifodasidir.

Yangilanayotgan mahalla — yuksalayotgan jamiyat, farovon kelajak poydevoridir.

**Akrom MAMADALIYEV**

# KUTUBXONA — ORZULAR MANZILI




Qo‘shtamg‘ali mahallasi hududida yana bir quvonchli voqea ro‘y berdi. Ta’lim va ma’naviyatni rivojlantirish, yoshlarning ilmga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida o‘tkazib kelinayotgan “Jadidlar izidan” tanlovining viloyat bosqichida 2-o‘rinni, “Kitobxon Kids” tanlovining respublika bosqichida esa faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan Bekobod tumani 42-umumta’lim maktabining 7-sinf o‘quvchisi **Suvonova Odina Dilshod qizi** alohida e’tirof etildi.

Tengdoshlari orasida ibrat namunasi bo‘lib kelayotgan yosh kitobxon Odinaning ilmga bo‘lgan qiziqishini yanada qo‘llab-quvvatlash, uning mutolaa bilan muntazam shug‘ullanishi uchun mahalla hududida zamonaviy kutubxona bunyod etildi. Mazkur bilim maskani nafaqat Odina uchun, balki mahalla yoshlarining ham kitob o‘qish, bilim olish va bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishida katta imkoniyat yaratadi.

Yurtimizda yoshlar ta’limi va ma’naviyatini yuksaltirish, ularning iste’dodini ro‘yobga chiqarishga qaratilayotgan yuksak e’tibor Odina kabi bilimga chanqoq o‘quvchilarning yutuqlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Yosh avlodning har tomonlama barkamol voyaga yetishi yo‘lida yaratilayotgan bunday sharoitlar esa kelajak bunyodkorlarini tarbiyalashga xizmat qilishi shubhasiz.

Kutubxonaning ochilish marosimidan so‘ng iqtidorli kitobxon o‘quvchi Suvonova Odina bilan qisqacha suhbat uyushtirdik. Yosh kitobxon o‘zining ilmga bo‘lgan qiziqishi, erishgan yutuqlari va kelajak orzulari haqida samimiy fikrlarini o‘rtoqlashdi.

# YOSH KITOBXON ORZULARI



***— Odina, kitobga qiziqish sizda qachondan boshlangan?***

— Kitobga qiziqishim kichkinaligimdan boshlangan. Bunda onamlarning hissasi katta. Ular o‘qigan kitoblaridan qiziqarli parchalar yoki voqealarni aytib berardi. Shu orqali kitob o‘qishga bo‘lgan mehrim shakllangan.

***— Tanlovlardagi g‘alabalarga erishishingizda kimlar yordam berdi?***

— Albatta, oilam menga katta yordam berdi. Ota-onam kerakli kitoblarni olib berishadi va tanlovlarga tayyorlanishim uchun sharoit yaratib berishadi. O‘qituvchilarimning mehnatini ham alohida ta’kidlashni istardim.

***— Kitob o‘qish sizga nima beradi?***

— Har bir o‘qigan kitobim bilan bilimim va fikrlash doiram kengayadi. Kitob o‘qib tugatganimda xursand bo‘laman, chunki mutolaa qilgan asarlarim soni yana bittaga ko‘payadi.

***— Tengdoshlaringizga qanday maslahat berasiz?***

— Telefon titkilab vaqt o‘tkazishdan foyda yo‘q, deb o‘ylayman. Har kim o‘z kelajagini o‘zi belgilaydi. Agarda ish beruvchi bo‘lmoqchi bo‘lsang, o‘qi! Agarda ishchi bo‘lishni xohlasang, marhamat: telefon o‘ynab yuraver.

***— Kelajakdagi rejalaringiz qanday?***

— Kelajakda Milliy sertifikat va IELTS imtihonlariga tayyorlanmoqchiman. Nasib qilsa, Janubiy Koreyaning nufuzli Seoul National Universitetida tahsil olmoqchiman.

Bugun Qo‘shtamg‘ali mahallasida barpo etilgan kutubxona nafaqat Odina uchun, balki hududdagi barcha yoshlar uchun ilm sari ochilgan yangi imkoniyatdir. Zero, kitob – inson tafakkurini yuksaltiruvchi, kelajak sari yetaklovchi eng ishonchli yo‘ldir.

**Sarvinoz SHERALIYEVA**

CHIM USTIDA XOKKEY

# VILOYAT CHEMPIONATI YAKUNLANDI



***Toshkent shahrida joylashgan Olimpiya shaharchasi hududida sportning chim ustida xokkey turi bo‘yicha Toshkent viloyati chempionati musobaqasi bo‘lib o‘tdi.***

Mazkur nufuzli sport tadbiri yosh sportchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, iqtidorli xokkeychilarni aniqlash hamda chim ustida xokkey sport turini keng ommalashtirish maqsadida tashkil etildi.

Musobaqada viloyatning turli hududlaridan tashrif buyurgan jamoalar g‘oliblik uchun murosasiz bahs olib bordilar. Sportchilar o‘z mahoratlarini namoyish etib, jamoaviy o‘yin texnikasi, tezkorlik va epchillikni sinovdan o‘tkazishdi.

Yakunda musobaqa g‘oliblari aniqlandi. Unga ko‘ra:

1-o‘rin — Toshkent viloyati Sport o‘yin turlariga va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabi jamoasiga;

2-o‘rin — Bekobod tumani Sport maktabi terma jamoasiga;

3-o‘rin — Parkent tumani Sport maktabi terma jamoasiga nasib etdi.

Musobaqa so‘ngida uning viloyatda chim ustida xokkey sport turini yanada rivojlantirish, yoshlarning sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish hamda iqtidorli sportchilar zaxirasini shakllantirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

**Jahongir SULTONOV,**
**Bekobod tuman Sport maktabi**
**yo‘riqchi-uslubchisi**

SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI



## HAYOTGA QAYTGAN UMID — TIBBIYOT FIDOYILIGI

Bekobod tuman Tibbiyot birlashmasining malakali shifokorlari tomonidan Bekobod tumani fuqarosi, 1980-yilda tug‘ilgan S.Mamadalievda murakkab jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli bajarildi.

Jarrohlik amaliyoti davomida bosh miyaning chap yarim sharida joylashgan qaytalanuvchi hajmli hosila — melanoma olib tashlandi. Malakali shifokorlarning fidokorona mehnati va tezkor harakatlari natijasida jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli o‘tdi. Ayni paytda bemorning ahvoli doimiy tibbiy nazoratda bo‘lib, zarur muolajalar davom ettirilmoqda.

Shuningdek, Ramazon oyining muborak kunlarida Prezidentimiz tashabbusi bilan yana bir xayrli ish amalga oshirildi. Bolalar milliy tibbiyot markazi mutaxassislari tomonidan Bekobod va Bo‘ka tumanlarida yurak nuqsoni bilan tug‘ilgan 4 nafar bolajonning hayoti saqlab qolindi. Ularning 3 nafarida yopiq, 1 nafarida esa ochiq yurak jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Bu sa’y-harakatlar shunchaki tibbiy amaliyot emas, balki ota-onalar ko‘zidagi quvonch, bolalarning kelajakka bo‘lgan umidi va hayotga qaytgan yashash nafasidir.

Yurtimizda inson qadri hamisha ustuvor, shunday ekan tuman tibbiyot tizimi aholi salomatligini asrash yo‘lida xizmat qilishda davom etadi.

**Bekobod tumani hokimligi**
**Axborot xizmati**

## SALOMATLIK YO‘LIDA STRATEGIK SHERIKLIK

**So‘nggi yillarda Tojikiston va O‘zbekiston davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Davlatlar rahbarlari — Emomali Rahmon va Shavkat Mirziyoyev o‘rtasidagi samimiy, do‘stona va o‘zaro ishonchga asoslangan konstruktiv siyosiy aloqalar ikki xalq vakillarini yanada yaqinlashtirdi. Natijada ko‘p vektorli hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilmoqda. Mazkur islohotlar barcha sohalar qatori tibbiyot tizimida ham o‘z aksini topmoqda.**

Davlatlar rahbarlarining siyosatida inson salomatligini asrash va aholining yashash sharoitlarini yaxshilash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu sababli ikki davlatda ham hukumat tomonidan sohani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘z navbatida, bu yo‘nalishda ikki davlat mutaxassislari ham salmoqli natijalarga erishib kelmoqda.

So‘nggi vaqtlarda yurak-qon tomir kasalliklarini erta aniqlash, oldini olish va davolash zamonaviy tibbiyotning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, ishemik kasalliklar, tomir torayishi va insult xavfi butun Markaziy Osiyo mintaqasida keng tarqalmoqda. Bu esa mazkur xavflarning oldini olishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunday kasalliklarni erta aniqlash va oldini olishda angiografiya usuli muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlar natijasida Bekobod tumani Tibbiyot birlashmasiga Niderlandiya davlatidan zamonaviy angiografiya tibbiy uskunasi olib kelindi. Ushbu uskuna nafaqat Bekobod, balki qo‘shni hududlar aholisi uchun ham katta ahamiyatga ega.

Mazkur tibbiy uskuna qon tomir tizimini aniq ko‘rsatib beruvchi, tomirlar holatini yuqori aniqlikda tahlil qiluvchi diagnostika apparati bo‘lib, yurak-qon tomir tizimidagi patologiyalarni erta aniqlash imkonini beradi. Ma’lumki, yurak-qon tomir kasalliklarida vaqt eng muhim omil hisoblanadi, erta tashxis esa inson hayotini saqlab qolish imkonini beradi. Bugungi kunda ushbu apparat amaliy tajribadan muvaffaqiyatli o‘tib, malakali mutaxassislar sa’y-harakatlari natijasida aholiga samarali tibbiy xizmat ko‘rsatib kelmoqda. Xalqaro standartlar asosida yo‘lga qo‘yilgan tibbiy xizmat, elektron navbat tizimi va maqbul narxlar bemorlar uchun ham qulaylik yaratmoqda.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Tojikiston va O‘zbekiston davlatlari o‘rtasidagi do‘stona aloqalar va chegaralarning ochiqligi, shuningdek, hududiy yaqinlik hamda transport aloqalarining mavjudligi qardosh tojik xalqining Bekobod tuman Tibbiyot birlashmasi xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, Tojikiston va O‘zbekiston o‘rtasidagi mustahkam do‘stlik hamda o‘zaro ishonchga asoslangan hamkorlik nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohalarda, balki inson salomatligini asrash yo‘lida ham amaliy natijalar bermoqda. Zamonaviy tibbiy texnologiyalar, malakali mutaxassislar va ochiq hamkorlik muhiti esa mintaqa aholisi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Zero, sog‘liqni saqlash sohasidagi har bir ijobiy qadam — ikki xalq farovonligi va sog‘lom kelajagi yo‘lidagi muhim hissa hisoblanadi.

**Shohida TO‘RAQULOVA,**
**Xalq deputatlari**
**Bekobod tuman Kengashi deputati**

*Ijtimoiy taraqqiyot*

## MAHALLA — FAROVONLIK TAYANCHI

***Jamiyatimiz barqaror taraqqiyoti mahallalarda aholi bandligini ta’minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mustahkamlanmoqda. Shu maqsadda hokim yordamchilari o‘z faoliyati bilan tumanimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga amaliy yechim topilishiga xizmat qilmoqda.***

*Bugungi kunda mahallalarda fuqarolarning bandligini oshirish, daromad manbalarini kengaytirish hamda iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Ishsizlik darajasini pasaytirish, aholini kasb-hunar kurslariga yo‘naltirish va kichik tadbirkorlikni rag‘batlantirish yo‘lida muhim natijalarga erishilmoqda.*

O‘tgan 2025-yil davomida:

- ishsiz fuqarolar ro‘yxatga olinib, ularga individual yondashuv yo‘lga qo‘yildi;
- kasb-hunar markazlari bilan hamkorlikda qayta tayyorlash kurslari tashkil etildi;
- yoshlar va xotin-qizlar o‘rtasida kichik biznes loyihalarini qo‘llab-quvvatlash dasturi amalga oshirildi;
- tomorqa yerlari mavjud oilalarga qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish bo‘yicha maslahatlar berildi.

Shu tariqa, mahallada o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan fuqarolar soni ortib, oilaviy daromadlarning mustahkamlanishiga erishilmoqda. Ayniqsa, yoshlar va ayollar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash samarali loyihalarning hayotga tatbiq etilishiga keng imkoniyat yaratmoqda.

Hokim yordamchilari faoliyati aholining real muammolarini joyida aniqlash va ularni hal etishda muhim o‘rin tutmoqda. Har bir murojaat sinchiklab o‘rganilib, fuqarolarga amaliy yordam ko‘rsatish orqali aholining ijtimoiy farovonligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kelgusida ham bandlikni oshirish, tadbirkorlikni yanada rivojlantirish hamda mahalla aholisiga sifatli xizmat ko‘rsatish borasida izchil ishlar davom ettiriladi. Zero, mahalla taraqqiyoti — yurtimiz farovonligining mustahkam poydevoridir.

**Sardorbek ISMOILOV,**
**Bekobod tumani “Farhod” MFY**
**hokim yordamchisi**

*Bahoriy ko‘kalamzorlashtirish mavsumi*



## “YASHIL MAKON” — KELAJAGIMIZ UCHUN BIRLASHAYLIK!

Bugungi kunda mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 46-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-martdagi 145-F farmoyishi hamda Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 17-martdagi 76-10-0-F/25-farmoyishiga muvofiq “O‘zbekiston–2030” strategiyasida ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini yanada kengaytirish bo‘yicha vazifalar izchil amalga oshirilmoqda.

Joriy yilning bahor va kuz mavsumlarida ko‘kalamzorlashtirish, manzarali va mevali daraxt hamda buta ko‘chatlarini ekish ishlarini tizimli va uyushqoqlik bilan tashkil etish maqsad qilingan.

Bekobod tumaniga 2026-yil bahor mavsumi uchun 536 200 dona meva-li va manzarali daraxt ko‘chatlari ekish bo‘yicha reja belgilangan bo‘lib, ushbu topshiriq tuman hududidagi korxona va tashkilotlar hamda fermer va dehqon xo‘jaliklariga taqsimlab berildi.

Martning ilk kunlaridan boshlangan dolzarb 40 kunlik ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari doirasida manzarali va mevali daraxt hamda buta ko‘chatlarini ekish ishlari davom etmoqda. Shuningdek, ekilgan ko‘chatlarni “Yashil makon” umummilliy loyihasining elektron platformasiga kiritish orqali hududlarda amalga oshirilayotgan ishlarni tizimli hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu ezgu tashabbus — yurtimiz tabiatini asrash, ekologik barqarorlikni mustahkamlash va kelajak avlod uchun yashil makon yaratish yo‘lida barchamizning faol ishtirokimizni talab etadi. Siz ham ushbu xayrli ishga o‘z hissangizni qo‘shing!

**Bekobod tumani Ekologiya va**
**atrof-muhitni**
**muhofaza qilish bo‘limi**

Dolzarb mavzu

# SOXTA HAVOLALAR TUZOG‘IGA TUSHMANG!

Bugun raqamli texnologiyalar barcha sohalarga jadallik bilan kirib keldi va bu jarayon davom etmoqda. Albatta, bunday yangiliklar aholi turmushida qulayliklar yaratdi, masofa va vaqt tejaldi, iqtisodiyot va biznesga yangi imkoniyatlar ochildi. Shu bilan birga, yangi texnologiyalar yangi xatarlarni keltirib chiqardi. Yurtimizda ham bu kabi jinoyatlar ortib bormoqda. Davlatimiz rahbari xalqaro darajadagi yirik sammitlarda, ko‘plab yig‘ilishlarda bu muammoga bir necha marta e’tibor qaratgan. Kiberjinoyatchilik terrorizm, ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar qatorida tilga olingan.

Achinarlisi, keyingi to‘rt yilda elektron to‘lov vositalari orqali sodir etilgan o‘g‘rilik va firibgarlik jinoyatlari bir necha baravarga ortgan. Misol uchun soxta havolalar yuborish orqali tasdiqlovchi kodni qo‘lga kiritib, karta boshqaruvini egallash, onlayn savdo platformalarida turli aldovlar bilan tovar va xizmatlar uchun to‘lovni oldindan amalga oshirishga erishish, telefon qo‘ng‘iroqlari orqali bank karta boshqaruvini tasdiqlovchi kodni qo‘lga kiritish, shaxslarni soxta kripto-birjalarga qiziqtirish va pul o‘tkazishga erishish, xorijdan meros yoki pul yuborishni va’da qilib, pochta xarajatlariga to‘lov sifatida pul o‘tkazdirish kabi usullar bilan sodir etilganligi aniqlangan.

Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlar aholining shaxsiy daxlsizligi va moliyaviy xavfsizligiga real xavf tug‘dirmoqda. Xo‘sh, bunday jinoyatlarning ko‘payishiga olib kelayotgan asosiy omillar nima?

**Login va parollarni bermang!!!** Firibgarlar asosan ijtimoiy injiniring usullarini qo‘llagan holda fuqarolarning ishonchiga kirish yo‘li bilan ularning mobil ilovalardagi akkauntlarini boshqarish imkonini beruvchi login va parollarni egallab, bank kartalaridagi pul mablag‘larini yechib oladi. Raqamli texnologiyalar jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan jarayonda har bir fuqaro o‘zining shaxsiy ma’lumotlarini (F.I.Sh, telefon raqami, bank karta raqami, elektron pochta manzili va h.k) internet tarmog‘idagi turli ko‘ngilochar saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, e’lonlarni joylashtirish servislarida qoldiradi. Ayrim resurslar esa ishonchsiz yoki xavfsizlik yetarli darajada ta’minlanmagan bo‘lib, foydalanuvchilar uchun xatarlarni keltirib chiqaradi.

Yana bir aldov usuli bevosita yoki telefonda aldash orqali. Firibgar fuqaroga qo‘ng‘iroq qilib, o‘zini bank va



to‘lov tashkilotining xavfsizlik, plastik karta, mijozlarni qo‘llab-quvvatlash yoki boshqa bo‘limi xodimi sifatida tanishtiradi. Shundan so‘ng, fuqaroning familiyasi, bank karta raqaminining ma’lum qismini aytib, uning mobil ilovadagi akkauntiga xujum uyushtirilgani, bank kartasi bloklangani yoki kartadan noqonuniy pul yechib olishga urinishlar bo‘layotgani, zudlik bilan chora ko‘rilishi lozimligi kabi bahonalar bilan fuqaroga bosim o‘tkazib, uni tezroq qaror qabul qilishga undaydi.

Yana bir: foydalanuvchiga go‘yoki “Markaziy bank” nomidan zararlangan ilova yuboriladi va uni telefon qurilmasiga o‘rnatish talab qilinadi. Ushbu jarayonda fuqaro firibgarning aldoviga ishonib ilovani o‘rnatadi va o‘z bank kartasini unga bog‘laydi. Firibgar bir martalik tasdiqlovchi kodni olgach, hisoblarni boshqarish imkoniyatini to‘liq egallab oladi.

Savdo maydonchalari: firibgar savdo maydonchalariga joylashtirilgan e’lonlardagi ma’lumotlardan foydalanib, buyumni sotib olmoqchi ekanini, ammo uzoqdaligini aytib, yetkazib berish xizmati (kuryer) orqali xaridni amalga oshirishni taklif qiladi. Fuqaro bunga rozi bo‘lgach, firibgar go‘yoki to‘lovni amalga oshirayotgandek ko‘rsatib, soxta havolani taqdim etadi. Unda esa bank karta raqami, amal qilish muddati va kartaga ulangan telefon raqamini taqdim etishi so‘ralgan bo‘ladi.

Yana bir firibgarlik turi ommaviy targ‘ibot kompaniyalari orqali sodir etiladi. Firibgarlar internetdagi turli ijtimoiy tarmoqlar yoki elektron pochta orqali sohta veb-saytlar, bank yoki to‘lov tashkilotlarining nomidan ochilgan sohta sahifalarni tarqatib, ular orqali turli (reklama qilish, sovrinli aksiyalar, lotoreya yutuqlari, bir martalik nafaqa to‘lovlari, uzoq qarindoshdan qolgan meros, sotilayotgan buyumni xarid qilish yoki arzon narxda sotish, internet orqali oson pul topish va h.k. kabi) takliflar berishi va fuqarolarning ma’lumotlarini kiritishini so‘rash orqali fuqarolarning ishonchiga kirib, ularning ma’lumotlarini qo‘lga kiritishga harakat qilmoqda.

Yana bir firibgarlik turi – shaxs nomiga uning xabarisiz onlayn kredit rasmiylashtirishdir. Bunda ham yuqoridagi kabi xorijiy fuqarolar soxta raqamlar orqali qo‘ng‘iroq qilib, o‘zini Markaziy bank yoki axborot xavfsizligi bo‘yicha mas’ul xodim deb tanishtiradi, keyin “kredit bo‘limi xodimi” yoki “bo‘lim boshlig‘i” deya boshqa shaxslarga, aslida esa o‘zining sheriklariga qo‘ng‘iroqni berib, shaxsning ishonchiga kiradi. Undan pasport bilan rasmga tushish, “tasdiqlovchi SMS-kod”ni va boshqa ma’lumotlarni ma’lum qilishni talab qiladi. Shu vaqt oralig‘ida bir nechta banklardan onlayn kredit rasmiylashtirib olib, pullarni darhol boshqa bank kartalariga o‘tkazish orqali o‘zlashtiriladi. Aldov qurboni bo‘lgan shaxs esa bankdan kreditni to‘lash haqida xat kelgandagina ushbu “sxema”dan xabar topadi...

Yuqorida sanab o‘tilgan jinoyatlar virtual muhitda sodir etilishi, jinoyat izini yashirish imkoni sababli boshqa turdagi jinoyatlarga nisbatan ularni fosh etish ko‘rsatkichi past.

**Nimalar qilish kerak?** Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda doimo ogoh bo‘ling. Brauzer, ilovalarni o‘z vaqtida yangilang. Mustahkam va ishonchli parollardan foydalaning. Parolingizni hech kimga ma’lum qilmang. Antivirus dasturlaridan foydalaning. O‘z mediasavodxonligingizni doimiy oshirib boring. Shubhali xabarlar, postlar va havolalarni boshqalar bilan bo‘lishmang. Bunday xatti-harakatlarga duch kelsangiz, ular haqida tegishli tashkilotlarga darhol xabar berishga odatlaning.

Elektron to‘lov vositalari orqali sodir etiladigan o‘g‘rilik va firibgarlik jinoyatlaridan himoyalanish uchun esa parol va kodlarni hech kimga ma’lum qilmang. Bank kartangizga SMS-xabarnomasini ulang. Antivirus dasturlaridan foydalaning. Bankomatlarda bank kartasidan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirishda yoningizda shubhali shaxslar yo‘qligiga e’tibor bering. Asosiysi chet eldan kelgan notanish raqamlarga javob bermang va videoqo‘ng‘iroqlarni ko‘tarmang!

**Ubaydulla MIRZAYEV,**
**Bekobod tumani Adliya bo‘limi**
**DXM direktori, 1-darajali yurist**

Bu muhim

# QO‘ZIQORINDAN ZAHARLANIB QOLMANG!

*Qo‘ziqorindan zaharlanish yakka tartibda yoki oilaviy holatda kuzatilishi mumkin. Qo‘ziqorinlar xususiyatiga ko‘ra zaharli va zaharsiz turlarga bo‘linadi. Zaharli qo‘ziqorinlar uch guruhga ajratiladi.*

Birinchi guruhga mansub qo‘ziqorinlar iste’mol qilingandan so‘ng 2 soat ichida ta’sir ko‘rsatadi: ko‘ngil aynishi, qorin og‘rig‘i va ich ketishi boshlanadi. Bemorning ahvoli iste’mol qilingan qo‘ziqorin miqdoriga bog‘liq bo‘ladi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi muxomor va qizil muxomorlar markaziy asab tizimini shikastlaydi. Ularning ta’siri 30 daqiqa yoki 2 soatdan keyin namoyon bo‘ladi. Bemor ko‘p terlaydi, og‘iz bo‘shlig‘ida so‘lak ajralishi kuchayadi, ko‘ngli aynib, tinimsiz qusadi.

Uchinchi guruhga kiruvchi oq poganka bilan zaharlanish ko‘pincha og‘ir kechadi va o‘lim holatlari bilan yakunlanishi mumkin. Zaharlanish belgilari 8–72 soat ichida paydo bo‘ladi. O‘rtacha 12 soatlik yashirin davrdan so‘ng o‘tkir qorin og‘rig‘i boshlanadi. Og‘riq kuchayib, tez-tez ich ketishi va qayt qilish kuzatiladi. Najas avval sariq-ko‘kimtir yoki loyqa ko‘kimtir bo‘lib, tez orada shilimshiqli-suvsimon holatga keladi. Behollik kuchayadi, kuchli tashnalik paydo bo‘ladi, ichilgan suyuqlik qayt qilib chiqariladi.

Suvsizlanish natijasida bemorning ahvoli og‘irlashadi: ko‘zlari ichiga kirib ketadi, ovozi pasayadi, qo‘l-oyoqlari soviydi, lablari va tirnoqlari ko‘karadi. Tana harorati odatda o‘zgarmaydi, biroq bolalarda ba’zan 38°C gacha ko‘tarilishi mumkin. Tomir urishi bir daqiqada 120–140 martagacha yetadi. Og‘ir holatlarda o‘lim kasallikning 9–10-kunlarida, ayrim hollarda esa 2–3 kun ichida yurak faoliyati to‘xtashi oqibatida yuz berishi mumkin.

Ba’zi holatlarda bemor ahvoli qisqa muddatga yaxshilangandek ko‘rinsa-da, keyinchalik qorin og‘rig‘i va ich ketishi yana kuchayadi, sariqlik alomatlari paydo bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda ham o‘lim xavfi yuqori bo‘ladi.

Agar zaharlanish uy sharoitida ro‘y bersa, shifokor kelguniga qadar bemorga taxminan 1 litr qaynatilgan iliq suv yoki yengil sodali eritma ichirib, qustirish tavsiya etiladi. Ushbu muolajani 5–6 marta takrorlash mumkin. Keyingi davolash ishlari faqat shifoxona sharoitida olib borilishi zarur.

Aziz hamyurtlar! Har bir insonning salomatligi o‘z qo‘lida. Bozorlarda sotilayotgan yoki yomg‘irdan so‘ng yovvoyi holda o‘sib chiqqan noma’lum qo‘ziqorinlarni iste’mol qilishdan saqlaning. Har bir xonadon ushbu tavsiyalarga rioya etsa, hududimizda qo‘ziqorindan zaharlanish holatlarining oldini olish mumkin bo‘ladi.

**Xayrullo TURSUMMATOV,**
**Bekobod tumani Sanepid bo‘limi**
**sanitariya shifokori**

Sog‘lom turmush tarzi

# TUZ VA SHAKAR: OQ AJAL DEYILISHI BEJIZ EMAS

Tuz iste’moli — kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. E’tibor bersangiz, deyarli har bir oshxona va restoranlarda stol ustiga tuz qo‘yib qo‘yiladi. Hozirgi kunda esa ko‘plab mamlakatlarda umumiy ovqatlanish joylarida tuzni stol ustiga qo‘yish amaliyoti bekor qilinmoqda. Chunki tuz va shakar ko‘pincha “oq ajal” deb ham ataladi.

Albatta, tuz qo‘shilgan ovqat mazali bo‘ladi. Ammo ortiqcha tuz iste’moli organizmda suyuqlik to‘planishiga, shish paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu esa gipertoniya, ya’ni qon bosimining oshishiga olib keluvchi asosiy omillardan biridir. Gipertoniya bilan og‘rigan insonlarda infarkt va insult kabi og‘ir kasalliklar xavfi yuqori bo‘ladi. Shu bois Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyasiga ko‘ra, kunlik tuz iste’moli 5 grammdan oshmasligi kerak.

Bugungi kunda aholining shakar iste’moli ham me’yordan bir necha barobar yuqori ekani kuzatilmoqda. Shakarni ortiqcha iste’mol qilish qandli diabet kasalligining asosiy omillaridan biridir. Organizmga tushgan ortiqcha shakar yog‘ga aylanadi va natijada ortiqcha vazn paydo bo‘ladi. Semizlik esa o‘z navbatida gipertoniya, yurak-qon tomir kasalliklari, infarkt va insult xavfini oshiradi.



Ayni paytda shirin ichimliklar, turli shirinliklar va muzqaymoqlarni ko‘pchiligimiz sevib iste’mol qilamiz. To‘g‘ri, glyukoza organizm uchun ma’lum darajada zarur. Ammo uning tarkibida vitaminlar, mikroelementlar va foydali to‘qimalar mavjud emas. Shu sababli u organizm uchun zarur mahsulot hisoblanmaydi. Bundan tashqari, inson organizmi boshqa tabiiy mahsulotlardan ham o‘ziga kerakli glyukoza va fruktozani ajratib olish qobiliyatiga ega.

Demak, shakar va tuz iste’molini me’yorida saqlash — sog‘lom turmush tarzining muhim shartlaridan biridir. Ulardan biroz tiyilish esa tanamizga faqat foyda keltiradi.

**Tojixon TOLIPOVA,**
**Salomatlik va strategik**
**rivojlanish instituti**
**Bekobod tuman bo‘limi shifokori**

# NAJOT – BILIMDA, NAJOT – TA’LIM VA TARBIYADA.

Pedagog minbari

## IQTIDORLAR – KELAJAK POYDEVORI




Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga bo‘lgan e’tibor va g‘amxo‘rlik yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, iqtidorli yoshlar qo‘llab-quvvatlanmoqda, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon etishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bekobod tumani “Kelajak” markazida o‘tkazilgan “Iste’dod – 2026” ijodiy ishlar ko‘rik-tanlovi ana shunday muhim tashabbuslardan biridir. Mazkur tanlovning maqsadi yoshlarning ijodiy yo‘nalishlardagi qobiliyatini yuzaga chiqarish, ularni rag‘batlantirish hamda kelgusida katta yutuqlarga erishishiga yo‘l ochishdan iborat. Tanlov davomida ishtirokchilar o‘z bilim va mahoratini sinovdan o‘tkazish, tajriba orttirish hamda tengdoshlari bilan ijodiy muloqot qilish imkoniga ega bo‘ldilar.

Ijod — kelajak poydevori. Ijod inson qalbining oynasidir. U orqali inson o‘z fikri, his-tuyg‘usi va orzularini ifoda etadi. Yoshlarning erkin fikrlashi, yangicha g‘oyalar bilan chiqishi jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. “Iste’dod – 2026” ko‘rik-tanlovi ana shu ijodiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlab, yangi iste’dodlarni kashf etishga xizmat qiladi.

Ko‘rik-tanlovga taqdim etilgan ijodiy namunalarga xolis baho berish maqsadida Bekobod tumani hokimi maslahatchisi S.Suvonova taklif etildi. Markaz pedagog xodimlari va to‘garak a’zolari o‘z qo‘llari bilan yaratgan ijod namunalari hakamlar tomonidan munosib baholandi.

Tanlovning yakuniy natijalariga ko‘ra, markaz pedagog xodimlari o‘rtasida 1-o‘rinni markaz uslubchisi Qo‘ldosheva Nigora egalladi. 2-o‘rin Imyaminova Sevara va Do‘smatova Maftunaga nasib etdi. 3-o‘rinni Karimova Xulkaroy, Alimova Gulhayo hamda Mamadvaliyeva Shohida qo‘lga kiritdi.

To‘garak a’zolari o‘rtasida esa 1-o‘rin Qurbonboyeva Jasmina, Mahmudjonov Temurbek va G‘ofurjonova Xushnozaga (4-umumta’lim maktabining tarmoq to‘garagi a’zolari) berildi. 2-o‘rinni Alijonov Afzalbek hamda Xasanboyeva Ruxshona egalladi. 3-o‘rin Ochilova Sarafroz, Abdurahmonova Nazokat va Abdumutallimova Shahlolarga nasib etdi.

Bir so‘z bilan aytganda, “Iste’dod” ko‘rik-tanlovi yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bunday tanlovlar ishtirokchilarga nafaqat maqtov yorliqlari va esdalik sovg‘alari, balki ustozlar va mutaxassislar tomonidan ijodiy ishlari baholanib, qimmatli maslahatlar olishlariga ham imkon beradi. Bu esa ularning kelgusidagi faoliyatida muhim tajriba maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, g‘oliblarning ommaviy axborot vositalarida e’tirof etilishi yoshlarni yanada ilhomlantiradi va yangi marralar sari undaydi.

**Oytojixon QODIROVA,**
**“Kelajak” markazi uslubchisi**

Shavkat MIRZIYOYEV




Sultonboy DEHQONOV olgan surat.

***Bugungi kunda yosh avlodni kitobga oshno qilish, ularning dunyoqarashi va tafakkurini kengaytirishda oilaning o‘rni beqiyosdir. Shu maqsadda Bekobod tumani 46-umumta’lim maktabining 1-“B” sinf o‘quvchilari hamda ota-onalari tomonidan “Kitobxon oila” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi. Mazkur tadbir ikki buyuk siymo — Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga bag‘ishlandi.***

## MA’NAVIYATGA ELTUVCHI YO‘L




Tadbir bayramona ruhda o‘tkazildi. Unda o‘quvchilar, ularning ota-onalari hamda ustozlar faol ishtirok etdilar. Ishtirokchilar milliy liboslarda qatnashib, tadbirga alohida ko‘rk va milliy ruh bag‘ishladilar. Tadbir davomida buyuk adiblarning hayoti va ijodi, boy adabiy merosi hamda yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni haqida ma’lumotlar berildi.

Asosiy qismda o‘quvchilar va ota-onalar o‘zaro savol-javoblar, suhbatlar hamda kitoblar haqidagi fikr almashuvlarda ishtirok etdilar. Shuningdek, adiblar asarlaridan namunalar o‘qib berildi. Bu jarayon bolalarning nutqini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish hamda jamoa oldida erkin fikr bildirish ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qildi. Kitob o‘qishning foydasi va oilada mutolaa madaniyatini shakllantirishning ahamiyati haqida ham atroflicha fikr yuritildi.

Tadbir yakunida faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantirilib, tashakkurnoma va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar. Bu esa bolalarda kitob o‘qishga va bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqni yanada kuchaytirdi hamda ularda unutilmas taassurot qoldirdi.

Xulosa qilib aytganda, buyuk adiblar tavalludiga bag‘ishlangan “Kitobxon oila” tadbiri yosh avlodning ma’naviy kamolotida muhim o‘rin tutadi. Bunday tadbirlar bolalarda kitobga mehr uyg‘otadi, milliy adabiyotimizga hurmatni mustahkamlaydi hamda bilimli va barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

**Hulkar MUSTAFOQULOVA,**
**Bekobod tumani 46-umumta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi**

# VATANPARVARLIK — MA’NAVIYAT TAYANCHI

Maktab hayotidan




Bekobod tumani 33-umumta’lim maktabida “Vatanga sadoqat — yuksak burchimiz!” shiori ostida o‘tkazilgan vatanparvarlik oyligi tadbiri yuksak saviyada tashkil etildi. Tadbir yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va fuqarolik mas’uliyatini yanada mustahkamlashga qaratildi.

Bugungi davrda yoshlarning ma’naviy immunitetini oshirish, jismonan sog‘lom va ruhan bardam etib tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi. Shu maqsadda tashkil etilgan tadbir maktab jamoasi: o‘qituvchilar va o‘quvchilarning hamjihatligi bilan mazmunan boy va tarbiyaviy jihatdan samarali o‘tdi.

Tadbirda maktabning barcha 10-sinf o‘quvchilari faol ishtirok etdi. Ular tomonidan namoyish etilgan harbiy-sport chiqishlari, saf mashqlari va jismoniy tayyorgarlik elementlari tomoshabinlarda katta qiziqish uyg‘otdi. Har bir chiqish yoshlarga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini, tinchlik va osoyishtalik esa bebaho ne’mat ekanini eslatdi. Saf tartibi va harakatlardagi intizom, mardlik va mas’uliyat o‘quvchilarning nafaqat jismoniy, balki ma’naviy yetuklik sari intilayotganidan dalolat berdi. Shuningdek, tadbir davomida vatanparvarlik faqat qurol tutish bilan cheklanmasligi, ilm olish, halol mehnat qilish va jamiyat oldidagi burchni anglash bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlandi. Zero, bugungi bilimli, ongli va fidoyi yoshlar — ertangi Vatan taraqqiyotining ishonchli poydevori hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, 33-umumta’lim maktabida o‘tkazilgan tadbir yoshlar qalbida milliy g‘urur va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini yanada mustahkamladi. Bunday tadbirlar ularni kelajakda mas’uliyatli va fidoyi shaxslar bo‘lib yetishishiga muhim hissa qo‘shadi.

**Dilnavoz NORMURODOVA,**
**Bekobod tumani 33-umumta’lim maktabi o‘quvchisi**

Ibrat maktabi

# TA’LIMGA BAXSHIDA UMR



***Hayotini ta’lim va tarbiya yo‘liga baxsh etgan insonlar jamiyatimizning chin ma’nodagi tayanchidir. Ular nafaqat dars bergan, balki butun bir avlodning kamol topishiga rahbarlik qilgan fidoyi zotlardir. Uzoq yillar maktab direktori sifatida faoliyat yuritib, dargohda intizom, sifat va ma’naviy muhitni mustahkamlashga bosh-qosh bo‘lgan, minglab o‘quvchilarning taqdirida o‘z izini qoldirgan ustoz bugun nafaqada bo‘lsa-da, uning hayot yo‘li, tajribasi va dono maslahatlari hanuz ko‘plar uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda.***

Hayit ota Berdiyev 1940-yil Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani Ustuk qishlog‘ida tug‘ilgan. Dehqon oilasida ulg‘aygan qahramonimiz o‘rta ta’limni Sirdaryo viloyatining Sayhunobod tumani 5-umumta’lim maktabida oladi. Hozirda istiqomat qilayotgan Bekobod tumanining Qolg‘onsir mahallasiga esa 1951-yilda ko‘chib keladi. Eng e’tiborlisi, Hayit ota o‘sha yillardagi ko‘chib kelganligini tasdiqlovchi hujjatni bugungi kungacha avaylab saqlab kelmoqda — go‘yo u qog‘oz parchasida butun bir umr yo‘lining boshlanish nuqtasi, taqdir burilishi va yangi hayot sahifasi mujassamdek.

16 yoshida mehnat faoliyatini “Qizil paxtakor” kolxozida boshlagan Hayit ota yoshligidanoq halollik va mas’uliyatni hayot mezoni qilib oldi. Biroq ilmga bo‘lgan chanqoqlik uni yanada yuksak marralar sari yetakladi — 1960-yilda Tojikiston Respublikasi Xo‘jand viloyati Pedagogika institutining Fizika va ishlab chiqarish asoslari fakultetiga o‘qishga qabul qilindi. Maktabni a’lo baholarga tamomlagan izlanuvchan yigit institutda ham faolligi bilan ajralib turdi: guruh sardori sifatida tengdoshlari orasida obro‘ qozondi, yoshlar konferensiyalarida muntazam qatnashdi, paxta yig‘im-terimlarida faol ishtirok etdi.

Institutni ham a’lo baholarga bitirib, 1965-yilda yo‘llanma asosida Bekobod tumaniga chegaradosh Mastchoh tumanidagi 2-umumta’lim maktabida pedagoglik faoliyatini boshladi. U yerda bir yil samarali mehnat qilgach, oilaviy sharoiti — ukasining harbiy xizmatga jo‘nashi va onasining yolg‘iz qolganligi bois 1966-yilda Bekobod tumanidagi 34-umumta’lim maktabiga (sobiq 45-maktab) ishga o‘tdi. Shundan so‘ng salkam qirq yil davomida ayni shu dargohda sidqidildan xizmat qilib, o‘z umrini ta’lim va tarbiya yo‘liga baxsh etdi. 1994-yilda pedagogik mahorati va kasbiy salohiyatining e’tirofi sifatida 1-toifa, 1999-yilda esa oliy toifa malaka darajasini qo‘lga kiritdi.

Hayit ota maktabda faoliyat boshlagan dastlabki yillarda ta’lim maskanining sharoitlari unchalik yaxshi bo‘lmagan. Shu sabab hashar yo‘li orqali maktab hududida ustaxona binosini barpo etish tashabbusini ilgari surdi. Mazkur ishlar o‘quvchilarning mehnatga bo‘lgan ko‘nikmalarini shakllantirish, amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishga xizmat qildi. 1970-yilda maktab jamoasi orasida hurmat va ishonch qozonib, kasaba uyushmasi raisi lavozimiga saylandi. Rahbarlik salohiyati va tashkilotchilik qobiliyati tufayli 1985-yildan 2005-yilgacha 34-umumta’lim maktabi direktori sifatida faoliyat yuritdi. Uning tashabbusi bilan 1987-yilda yangi maktab binosining qurilish ishlari boshlab yuborildi. Uzoq davom etgan qurilish jarayoni yakunida 1991-yilda zamonaviy o‘quv xonalari, keng yo‘laklar, yorug‘ sinfxonalar va o‘quvchilarga bilim olish uchun munosib sharoitlarga ega bo‘lgan yangi maktab binosi foydalanishga topshirildi. Qizig‘i shundaki, yangi ta’lim maskanining ishga tushirilishi aynan Mustaqillik bayrami arafasiga to‘g‘ri kelib, ikki karra quvonch — yurt mustaqilligi va yangi maktabning ochilish tantanasi jamoa xotirasida yorqin sahifa bo‘lib qoldi. 1992-yilda esa maktab o‘quv jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida zamonaviy o‘quv qurollari, jihozlar va zarur ta’lim vositalari bilan ta’minlash ishlarini davom ettirdi. Qahramonimizning fidokorona pedagogik mehnatlari davlat va jamoatchilik tomonidan yuksak baholanib, 1990-yilda “Xalq maorifi a’lochisi” nishoni bilan mukofotlangan.

Hayit otaning 2 nafar qizi va 4 nafar o‘g‘il farzandi bo‘lib, bugungi kunda nevara va chevaralarining aniq sonini sanashda ham ba’zan adashib ketadi. Nafaqaga chiqqan bo‘lsa-da, u hanuz oilasining mustahkam tayanchi bo‘lib qolmoqda. Hayot yo‘li davomida farzandlariga halol mehnat qilish, vatanparvarlik va insoniylik fazilatlarini singdirib kelmoqda. Shu bilan birga, Hayit ota mahalla ravnaqi, xalq farovonligi va hudud obodonchiligi yo‘lida ham faol tashabbus ko‘rsatib kelgan fidoyi insonlardan biridir. Jumladan, 2015–2016-yillarda Qolg‘onsir mahallasining gazlashtirish ishlari amalga oshirilishida bosh-qosh bo‘lib, ushbu muhim loyihaning hayotga tatbiq etilishiga munosib hissa qo‘shdi. 2025-yilda esa mahalla ichki yo‘llarining asfaltlanib, tekis va ravon holga keltirilishi, aholi uchun qulay sharoitlar yaratilishida o‘zining tashabbuskorligi va jonkuyarligini yana bir bor namoyon etdi. Shuningdek, mahallaning suv ta’minotini yaxshilash hamda qishloq vrachlik punktini ta’mirlash ishlarida ham Hayit otaning sa’y-harakatlari sezilarlidir.

Farzandlarim va nabiralarimga doimo shuni aytaman: halol mehnat insonni ulug‘laydi, ezgulik va ilm yo‘lidan yurish esa hayotning eng katta baxtidir. Har qanday sharoitda ham insoniylikni saqlang, Vatan va el-yurt manfaatini o‘z manfaatlaringizdan ustun qo‘ying, — deydi Hayit ota suhbat davomida.

Hayit ota Berdiyevning mazmunli hayot yo‘li bugungi avlod uchun ham ibrat va saboq maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda. U kishining uzoq yillar davomida ta’lim sohasiga fidoyilik bilan qilgan xizmati, maktab ta’limini rivojlantirish va mahalla ravnaqiga qo‘shgan hissasi xalq hurmatiga sazovor bo‘lgan. Hayit otaning hayotiy tajribasi, mehnatsevarligi va insoniy fazilatlari esa kelajak avlod tarbiyasida muhim o‘rin tutishi shubhasizdir.

**Sarvinoz SHERALIYEVA**

# ILHOM ULASHGAN ISTE’DODLAR

Bugun bilim va ijod yo‘lida dadil qadam tashlayotgan, o‘z iste’dodi bilan ajralib turadigan yoshlarning safi tobora kengayib bormoqda. Ularning har bir yutug‘i ortida katta mehnat, izlanish va mustahkam ishonch mujassam. Ana shunday iqtidorli yoshlardan biri — Fayzimuratova Shabnam Nurali qizi bo‘lib, u o‘zining ijodiy ishlari va erishgan muvaffaqiyatlari bilan e’tiborga loyiqdir.

Fayzimuratova Shabnam 2008-yil 16-may kuni Toshkent viloyati Bekobod tumanining Qolg‘onsir mahallasida tug‘ilgan. U bolaligidan tirishqoq va intiluvchan bo‘lganligi bois, 5 yoshidan 31-maktabgacha ta’lim muassasasida tahsil olgan davridayoq turli tadbirlarda faol ishtirok etib kelgan. 2015-yilda 34-umumta’lim maktabiga o‘qishga qabul qilinib, ta’lim jarayonida o‘zining ijodiy qobiliyatini namoyon eta boshlagan. Shabnamning she’riyatga bo‘lgan qiziqishi 5-sinfdan boshlab kuchaygan. Uning ilk ijodiy ishlari tez orada e’tirof etilib, “G‘uncha”, “Bulbulcha” jurnallari hamda “Bekobod ovozi” gazetasida chop etilgan. Yillar davomida u o‘z ustida ishlab, ijodiy izlanishlardan to‘xtamadi.

2023-yilda “Ilhom” yosh ijodkorlar adabiy to‘garagiga a’zo bo‘lishi uning ijodiy faoliyatida muhim bosqich bo‘ldi. 2024-yildan boshlab she’rlari “Sir bo‘yi ilhomlari” to‘plamida nashr etila boshlandi. Shu bilan birga, u Olmaliq shahar 1-son texnikumining “Kompyuter grafikasi va dizayn operatori” yo‘nalishiga o‘qishga kirib, ijod bilan bir qatorda zamonaviy bilimlarni ham egallamoqda.

Shabnam nafaqat she’riyat, balki maqola yozishda ham o‘zini sinab ko‘rdi. Uning maqolalari ingliz, rus, qozoq va nemis tillariga tarjima qilinib, xorijiy jurnallarda chop etildi. 2025-yilda “O‘zbek adabiyotining bugungi kundagi rivoji” mavzusidagi maqolasi MDH davlatlarida yuqori baholandi.

Yosh ijodkor turli tanlovlarda ham faol ishtirok etib, yuqori natijalarga erishmoqda. Xususan, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti uchun o‘tkazilgan tanlovning tuman bosqichida 1-o‘rinni egallab, viloyat bosqichiga yo‘llanma olgan va u yerda ham faxrli o‘rinlardan birini qo‘lga kiritgan. 2025-yil 21-dekabr kuni MDH miqyosida o‘tkazilgan xalqaro tanlovda muvaffaqiyat qozonib, “Ta’lim sohasidagi fidoyi xizmatlari uchun” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

Qahramonimizning bugungi yutuqlari ortida katta mehnat, qat’iyat va, eng muhimi, oilaviy qo‘llab-quvvatlov turibdi. U o‘z muvaffaqiyatlarini ota-onasining ishonchi bilan bog‘laydi. Yoshligidan berilgan tarbiya, hayotiy o‘gitlar va rag‘bat uni yanada kuchli bo‘lishga undagan. Bugungi kunda Shabnam yangi marralar sari dadil qadam tashlamoqda. Uning orzulari katta, maqsadlari aniq. Eng muhimi, u bu yo‘lda ishonch va ilhom bilan harakat qilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘z maqsadiga intilayotgan yoshlar nafaqat o‘z orzularini ro‘yobga chiqaradi, balki jamiyat kelajagi uchun ham yorqin iz qoldiradi. Shabnam kabi iqtidorli va intiluvchan yoshlar yurtimiz kelajagining yorqin namunasidir. Uning erishgan yutuqlari hali boshlanishi bo‘lib, oldinda uni yanada ulkan zafarlar kutib turibdi. Shabnamga kelgusi faoliyatida omad, ilhom va yangi cho‘qqilar tilab, so‘zimni uning qalamiga mansub she’r bilan yakunlamoqchiman.

**BAHOR**

*Maysalar ko‘karib, boychechak chiqdi,*
*Ariqda yalpizlar taratar ifor.*

Ijod qanotida



*Bolalikning yana bir yili o‘tdi —*
*Kelganing muborak, kelinchak bahor!*

*Yam-yashil bog‘larda o‘rik gulladi,*
*Lolalar qirmizi bo‘lib kuladi,*
*Bulbul navosini kuyga uladi —*
*Kelganing muborak, kelinchak bahor!*

*Sening iforingdan o‘zgacha olam,*
*Yashil libos kiygan qirlarim, dalam.*
*Men seni kuylayman qo‘limda qalam —*
*Kelganing muborak, kelinchak bahor!*

**Lobar JUMABOYEVA**

# Bahor keldi seni so‘roqlab

Zulfiya – bahor shoirasi. Zulfiya – qalblar shoirasi. Zulfiya sadoqatni madh etuvchi dilbar shoira. Ijodkorni go‘zal asarlar yozishga undovchi turli holatlar bor. Zulfiya esa yuragidagi ayriliq azobini misralarga tizar ekan, beixtiyor yozganlarida o‘zining vafo va yorga sadoqat tuyg‘ularini ham ifoda etadi.

Ayolni ulug‘lagan, ayolni sharaflagan jufti xotirasini abadiylashtirishni o‘z burchi deb bilar ekan, Zulfiya bu mas’uliyatni bajarishning uddasidan chiqdi:

***Hayotda men uchun qolarding tirik,***
***Qalaming mujdasin kutardim mushtoq.***

Zulfiya ijodiga mushtoqlar, Zulfiya ijodini sog‘inganlar uchun tayyorlagan tuhfamiz umid qilamizki, siz aziz gazetxonlarga manzur bo‘ladi.

**Tahririyat**



## MEN O‘TGAN UMRGA...

*Hayot kitobimni bexos varaqlab,*
*Men o‘tgan umrga achinmay qo‘ydim.*
*Tabassum o‘rnida kuldim charaqlab.*
*Suyish kerak bo‘lsa – telbacha suydim.*

*Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,*
*Yurak boyligidan qilmabman parvo.*
*Meni og‘ushlagan hayot naq oftob,*
*Yangi qo‘shiq talab unda har saboq.*

*Men o‘tgan umrga achinmay qo‘ydim,*
*Hech kimda ko‘rmayin umrimga o‘xshash:*
*Suydim,*
*Erkalandim,*
*Ayrildim,*
*Kuydim,*
*Izzat nima – bildim. Shu-da bir yashash!..*

# O‘ZBEKISTON XALQ SHOIRI ZULFIYA ISROILOVA TAVALLUDINING 111 YILLIGIGA BAG‘ISHLANADI

## BOG‘LAR QIYG‘OS GULDA

*Bog‘lar qiyg‘os gulda – yaxlit bir chaman,*
*Har daraxt anvoyi bir tarovatda.*
*Bir kaft bog‘ mehnat-u hosilga vatan,*
*O‘zga ko‘rk,*
*o‘zga rang har bir daraxtda.*
*Har navda bir gulda, har gulda bir ro‘y,*
*Har daraxt bargi bir dunyo hikoya.*
*Har birin hosili o‘zgasiga ko‘rk,*
*Biri biri uchun qudrat, himoya.*
*Vatanim ko‘zimda: qay burchi aziz,*
*Bilmam, qayda tole serzavq, serjilo?*
*Yalpi to‘lishadi bedaxl yurtimiz,*
*Naq har qarichi dil, jon tomir go‘yo.*
*Bir qardosh tinchisiz – o‘zga beorom,*
*Birining nonisiz – o‘zga emas to‘q...*
*Bu – qadim dunyoda yangi bir olam,*
*Bunda orqa tog‘siz bir tirik jon yo‘q.*
*Tayanch bo‘lmasaydi odamzot albat,*
*O‘zi kashf etardi, kashf etganday baxt.*

### *Nekbin tuyg‘ular*



***Sitora TOSHMATOVA,***
***Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi***

## BAXTNING RANGI

*Shaftoli gullari to‘zg‘igansimon,*
*Ko‘zimga pushtirang ko‘rinyapti qor.*
*Tashqarida havo sovuqdan sovuq,*
*Ammo yuragimda kulyapti bahor.*
*Jajji ko‘rinyapti hatto tog‘lar ham,*
*Mitti ko‘rinyapti go‘dak singari.*
*Daydi xayollarim tortqilayapti*
*Meni yangi orzu, maqsadlar sari.*
*Hamma narsa yorqin, chiroyli, pushti,*
*Hamma narsa meni baxtga unda(y)di.*
*Endi bildim: baxtning rangi pushtiykan,*
*Jajji chaqaloqning labchasi kabi...*

## O‘ZBEK QIZI

*Ko‘z qorasin hayodan olgan,*
*Ovozin xush sabodan olgan,*
*Yuzlarini gulobda chayib,*
*Nigohini ibodan olgan.*

*Kumushbibi namuna bo‘lgan.*
*Nodiradan zako o‘rgangan.*
*Uvaysiyning chistonidagi*
*Anordayin orlanib turgan.*

*Mardlik qilsa, yuzta erdan zo‘r,*
*Qahri jo‘shsa, To‘marisday o‘r.*
*O‘zbek qizi, o‘zbekning qizi*
*Nasli – iffat, fazilati – or!*

**Sarvinoz SHERALIYEVA**

## O‘G‘LIM, SIRA BO‘LMAYDI URUSH

*To‘lisharmi o‘lkada bahor,*
*Quyosh kezar osmon ko‘ksida*
*Qaldirg‘ochlar qanotmi qoqar,*
*Undan soya labi ustida.*
*Mana, o‘g‘lim labi ustida*
*Qaldirg‘ochning mayin qanoti.*
*O‘spirinim toza ko‘ksida,*
*Kunda oshar yangi his toti.*
*Bo‘yi oshib ketdi bo‘yimdan,*
*Bosa olar ko‘ksiga boshim.*
*Sevgim qurib bergan uyimda.*
*O‘sdi mening katta yo‘ldoshim.*
*Yurak to‘la shodlik, mehr, baxt,*
*Uning ko‘zlariga boqaman.*
*Nigohiday tiniq va yorqin*
*Orzu to‘lqinida oqaman.*
*Orzulari qalbimga ziynat,*
*Hayotidir ko‘zim qorasi.*
*O‘kinaman, ba’zida faqat,*
*Yonida yo‘q, uning otasi.*
*Urush! Noming o‘chsin jahonda,*
*Hamon bitmas sen solgan alam.*
*Sen tufayli ko‘p xonadonda*
*Ota nomli buyuk shodlik kam.*
*Yulding ota demak baxtini,*
*Juda murg‘ak go‘daklarimdan.*
*Yaxshi ham bor shunday Vatani,*
*Dalda bo‘ldi yuraklarimga.*
*Ota bo‘lib soldim men yo‘lga,*
*Ona bo‘lib mehrimga oldim.*
*Mana, yurtga o‘g‘il o‘stirgan*
*Bir davlatmand boy bo‘lib qoldim.*
*Qancha ishonch, umid baxsh etar,*
*Ham Vatanga, ham menga bu dil,*
*Qoya kabi yonimdan chiqib,*
*Suyan, – deydi, – kiftimga dadil.*
*Men onaman, mening yuragim*
*Farzandlarim quvonchiga kon.*
*Dil orziqar, ba’zan tilagim*
*Vahimalar o‘ragan zamon.*
*Yo‘q, urushning nomi ham o‘chsin,*
*Mening o‘ g‘lim kerak hayotga.*
*Istamayman, uning dudlari*
*Qo‘nsin labi uzra qanotga.*
*Bas, bas, ezgu onalar qalbi*
*Yashay olsin bexavf, baxt bilan.*
*Mehnatimiz, g‘azab, sevgimiz*
*Tinchlik, deydi butun xalq bilan.*
*Ko‘krak suti va mehnat bilan*
*Biz jahonga berganmiz turmush,*
*Ona qalbi oyoqqa tursa,*
*O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush!*

## KECHANI TONGLARGA YETKAZGAN SABR...

*“Qaradim-u, ko‘zimni ortiq*
*Uzolmadim tirik hayotdan.*
*Sozim, qalbim, qo‘shig‘im bilan*
*Maftun bo‘ldim men qayta boshdan...”*

**Zulfiya**

*Borini bahorga berib, o‘kinib,*
*Gullarning qatida ko‘rdi o‘zini.*
*Taqdirning zarbiga bir umr ko‘nib,*
*She’rlarda erta-kech to‘kdi bo‘zini...*
*Nolaki shashqator ashkka limmo-lim,*
*Har kalom yo‘g‘rilgan yurak qonidan.*
*Bunchalik tabiat bo‘lmasa zolim,*
*Bemavrid ayirdi jonajonidan.*
*Muhabbat dardini ko‘targancha dil,*
*Kechani tonglarga yetkazdi sabr.*
*Shamolday yugurib o‘tdi oy-u yil,*
*Unutmay yorini yashadi axir!*
*She’r aziz, yor aziz, muhabbat abad,*
*Qadimiy bu ishqning yo‘rig‘i boshqa.*
*O‘zini bag‘ishlab bir umr faqat*
*Uyg‘ondi talpinib har kun quyoshga...*
*Bog‘larning bag‘ridan izladi orom,*
*Jilmaygan g‘unchalar yuziga boqdi.*
*Har lahza topganday beqiyos ilhom,*
*Uning quchog‘ida buloqday oqdi.*
*Oyning shulasiga o‘ylarin yuvib*
*Nogohon ko‘z tashlar yashnagan boqqa.*
*G‘animat damlarni qo‘msab, suyunib,*
*Ko‘ksiga bosgan gul sig‘mas quchoqqa...*
*O‘rik gullarining ajib sehri-yu*
*Olmalar gulining nafosatidan,*
*Har yili takror bu ko‘klam mehri-yu*
*Bebahra qolmadi saxovatidan...*
*Sadoqat vaqt o‘tib ayladi ta’zim,*
*Yonidan jilmadi vafolik aslo.*
*Qanoat bobida daryoi-azim,*
*Mavjlandi eng so‘nggi nafasgacha to...*
*Ko‘ksida bitmasdan qolgan o‘sha dard,*
*Ko‘klarda sarosar yurgandir kuylab.*
*Har yili sog‘inib kelaverar mart,*
*Qolmas hech biror bir shoirin yo‘qlab...*
*She’riy olam aro ko‘ngil beozor,*
*Har satri baxsh etar so‘nmas hayajon.*
*Bor sepin yoygancha yuz ochgan bahor*
*Gupirib gullashi bo‘ladi ayon...*
*Kengliklar oralab iforli nafas*
*Yellar quchog‘ida erkalanganday.*
*Go‘yoki ikki qalb sirlashar besas,*
*Shundoq ro‘paramda sokin yurganday...*
*Men esa ko‘zimda yosh bilan turdim...*

**O‘tkir RAHMAT**

## KELDI BAHOR

*Qahratonning yuzlarini*
*Silab o‘tgan nurlar sohir.*
*Iliqlikka to‘lib nafas*
*Havolarga keldi bahor.*

*Ko‘kda qushlar aytadi roz,*
*Bu fusunli faslga xos,*
*Shamollardan kelgan ovoz,*
*Navolarga keldi bahor.*

*Uyg‘otadi mudroqlarni*
*Nafaslarga to‘lgan ifor.*
*Baxtning kuyin chalib o‘tgan*
*Sabolarga keldi bahor.*

*Qalbda dardning sazolari –*
*Bahorning sof havolari.*



**Muxtasar KARIMOVA,**
**Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi**

*Bu dillarni shod aylagan*
*Navolari, sabolari.*

*Bulut to‘kdi nuqra tomchi*
*Yuzlarimdan undi baxtlar.*
*Kim bahorga soya solmish?*
*Himoyadadir daraxtlar.*

*Xazonlarni bu qalbimning*
*Osti, tublariga ko‘mdim.*
*Yerdan chiqqan gul maysani*
*Yuragimga olib ekdim...*

*Sabolarga keldi bahor,*
*Navolarga keldi bahor*
*Vatanimga keldi bahor,*
*Qalb, tanimga keldi bahor.*

Hikoya

# BENAZIR AYOL QISMATI



## JEK LONDON

Qurbonlikning ham qurbonlikdan farqi bo‘ladi. Lek mohiyatan qurbonliklarning tub negizi bir. Uning g‘ayrimantiqligi shundan iboratki, inson o‘zinikidan-da muqaddasrog‘i uchun eng aziz narsasini fido aylaydi. Dunyo dunyo bo‘libdiki, hamisha shunday bo‘lgan. Hobil o‘z otaridan yangi tug‘ilgan ilk qo‘zilarni hamda ularning jirlaridan qurbonlikka olib kelganida ham shunday bo‘lgandi. Hobil yangi tug‘ilgan qo‘zichoqlarini hech nimaga alishmasdi, shundoq esa-da Xudo yo‘lida ularni nazr etdi. Ibrohim alayhissalom o‘g‘li Isoqni qurbonlikka olib kelganlarida ham shunday evrilmish edi. Ibrohim hazratlari dilbandini jonidan ortiq ko‘rsalar-da Tangri taoloni eng ulug‘ zot deya sajda qilardilar. Yoxud ul zot Yaratguvchidan qo‘rqarmidilar? Nima bo‘lgan taqdirda ham o‘shal zamonlardan buyon necha milliardlab insonlar hazrati Ibrohim Halilullo Tangri taoloni sevguvchi hamda Unga ibodat qilish ishqida kuyib-yonganligiga imon keltirmishlar.

Shundoq ekan, muhabbat — bu sig‘inish, o‘zni fido aylash — topinish demakdir; bundan kelib chiqib aytish mumkinki, soddagina qora tanli qiz — Jis-Ukning qalbiga buyuk muhabbat ingandi. Jis-Uk ob-havo alomatlarini-yu ilvasinning izlarini ko‘z yumib “o‘qiy olardi”, muqaddas tarix-u Hobil va hazrati Ibrohim bobida “gung va kar” edi. Muqaddas xoch rohibalarining jonkuyarligi uni ortda qoldirgandi, qolaversa, bu qora tanli qizga birov olis o‘lkadan bo‘lmish yetti yot begona ayolni deb o‘zining ilohidan kechgan moavityanlik allaqanday Ruf haqida so‘ylab bermagandi. Jis-Uk birgina — ming mashaqqat-la qo‘lga kiritgan suyagidan tayoq zarbasi ostida voz kechayotgan daydi it singari qurbonlik qilishni bilardi. Vaqti kelib Jis-Uk kimsan oq tanlilar elatining samoviy saltanatigacha ko‘tarila oldi va chinakamiga o‘zini fido ayladi.

Alqissa, hikoyamizda Jis-Ukning ko‘rgan-kechirganlari, Niyl Bonnerning va Kitti Bonnerning taqdiri hamda Niyl Bonnerning ikki farzandi haqida so‘z boradi.

Garchi Jis-Uk qora tanli bo‘lsa-da, na hindular, na eskimoslar, na innuitlar qavmiga mansub edi. Rivoyatlarga ko‘ra, bundan ancha zamonlar ilgari toyat qabilasidan bo‘lmish Skolkz ismli hindu kunlardan bir kuni Yukon daryosidan Buyuk Deltadagi innuitlar qishlog‘iga tushib kelibdi va bu yerda bo‘lajak umr yo‘ldoshi — dilbar Olillini uchratibdi. Olillini onasi eskimos, otasi inniut edi. Ularning muhabbati hosilasi o‘laroq Xali dunyoga keladi. Bu Xali deganlari esa Jis-Ukning buvisi edi.

Tomirlarida uch qabilaning qoni oqayotgan Xali hech o‘ylanib o‘tirmay mo‘ynalar bilan savdo qiluvchi Bo‘rdoqi laqabli rus Shpak bilan bir yostiqqa bosh qo‘yadi. Shpakni rus millatidan deb atadikkim, aniqroq atama topishga aqlimiz ojizlik qildi, nega desangiz, uning otasi, sobiq rus katorgachisi simob konlaridan Shimoliy Sibirga qochadi va Bug‘u qabilasidan bo‘lgan, kelgusida Jis-Ukning bobosi bo‘lguvchi Shpakning volidai muxtaramasi Zimba degan ayolni uchratadi.

Vaholanki Shpakni yoshligida Shimoliy Muz okeani sohillarida arang kun ko‘ruvchi Dengiz Odamlari o‘g‘irlab ketishmaganida u Jis-Ukning bobosi bo‘lishdek baxtdan mosuvo bo‘lardi va ushbu uzundan-uzoq, o‘ylab topilmagan hikoyani hukmingizga havola etolmasdik. Lekin baxtga qarshi Dengiz Odamlari Shpakni o‘g‘irlab ketishdi, u esa Kamchatkaga qochishga muvaffaq bo‘ldi, o‘sha yoqdan norveg kit ovlovchi kemasida Boltiq dengizigacha yetib oldi. Keyinchalik Shpak Peterburgga borib qoldi. Oradan hech qancha vaqt o‘tmay bundan yarim asr oldin otasi kishanda bosib o‘tgan mushkulotlarga to‘la yo‘ldan u ham Sharqqa yo‘l oldi. Faqat Shpak ozod kishi sifatida, Rus mo‘ynalar kompaniyasi xizmatchisi bo‘lib yo‘lga otlangandi. O‘z vazifasini bajarar ekan, u Sharqqa tomon olg‘a ketaverdi, nihoyat Bering dengizi orqali ruslar Amerikasigacha yetib bordi. Pastilikada, Yukonning Buyuk Deltasida u Xalini o‘z nikohiga oldi. Bu turmushdan qizaloq Tyuksen tug‘ildi.

Kompaniyaning farmoyishiga binoan Shpak Yukon bo‘ylab bir necha yuz chaqirim yuqoriga, qayiqqa o‘tirib Nulatoga suzib ketdi. Xotini va qizini ham o‘zi bilan oldi. O‘shanda 1850-yil edi. Xuddi shu yili hindular Nulatoga hujum qilishib, bor tirik jonni qirib tashlashdi. Shpak va Xali shu tarzda halok bo‘lishdi. O‘sha qonli kechada Tyuksen g‘oyib bo‘ladi. Toyatlar bu ishga aloqador emasliklariga hozirgacha ont ichishadi, biroq shunisi borki, qizaloq Tyuksen toyatlar orasida voyaga yetdi.

Tyuksen ikki marta turmushga chiqdi, ammo farzand ko‘rmadi. Qabila ayollari uni qo‘llari bilan bigiz qilib ko‘rsatishar, bepusht tul xotinga ko‘zni chirt yumib uylanishga uchinchi bir mard toyat topilmasdi. Ayni shu damlarda daryo bo‘ylab bir necha chaqirim yuqorida — Yukon qo‘rg‘onida — Spayk O’Brayen ismli g‘aroyib kishi yashardi. Yukon qo‘rg‘oni Gudzon qo‘ltig‘i Kompaniyasiga qarashli bo‘lib, Spayk O’Brayen u yerda harbiy xizmatni o‘tardi. U sitqidildan xizmat qilardi, axiyri xizmat joniga tegdi, shekilli, qochishga qaror qildi. Keyingi post — Gudzon qo‘ltig‘idagi York faktoriyasigacha yetib olish uchun kam deganda bir yil ketardi. Qolaversa, postlar Kampaniya qaramog‘ida edi va O’Brayen bilardiki, bu yo‘lda u Kampaniyaning changalidan qochib qutilishi amri mahol. Faqat birgina yo‘l — Yukon bo‘ylab pastga qochish kerak. To‘g‘ri, hali birorta oq tanli Yukonning quyisiga qadami yetmagan, birorta oq tanli Yukon ummonga yoki Bering dengiziga quyiladimi-yo‘qmi bundan boxabar emasdi, lekin Spayk O’Brayen kelt edi. Shundoq ekan, xavf-xatar uning doimiy hamrohi bo‘lib kelgandi.

Oradan bir hafta o‘tib, ust-boshining uvadasi chiqqan, ochlik va bezgakdan o‘lar holatga kelgan qochoq qirg‘oqning sayoz joyida toyatlar ovulida kiraverishda o‘zini yerga tappa tashladi-da, xushidan ketdi. Kuchga to‘lib, ko‘z ochib ilk ko‘rgani Tyuksen bo‘ldi, bu esa ularning yulduzi yulduziga to‘g‘ri kelganidan mujda edi. Shpakning otasi sibirlik Bug‘u qabilasi odamlarining orasida to umr shomi poyoniga yetgungacha umrguzaronlik qildi. O’Brayen ham toyatlar orasida tinchgina yashab qolsa bo‘lardi, ammo yuragidagi sarguzashtga bo‘lgan tashnalik uni olis-olis manzil-u marohillarga shoshirardi. York faktoriyasi bilan Yukon qo‘rg‘oni orasidagi yo‘lni zabt eta oldimi, demak, dengizga chiqib olishi cho‘t emas, demak, quruqlikda Shimol-G‘arb yo‘nalishidagi yo‘lni bosib o‘tishdagi ilk g‘alaba gulchambari unga nasib etadi. Shu maqsadda daryo bo‘ylab quyiga suzib ketdi, gulchambarni ham qo‘lga kiritdi, biroq anchagacha bedarak yo‘qoldi va nomi tillarda doston bo‘lmadi. Keyinchalik San-Fransiskoda matroslar uchun mo‘ljallangan arzon tamaddixona ochdi, u yerda ashaddiy tovlamachi, degan nom chiqardi, negaki, O’Brayen ko‘rgan kechirganlarini ro‘y-rost hikoya qilardi. Beva qolgan Tyuksen esa jajjigina chaqaloqni dunyoga keltirdi. Bu Jis-Uk edi. Uning ajdodlari shajarasiga bunchalik chuqur yondashishimizga sabab Jis-Uk na hindu, na eskimos, na innuit emasligi qatorida ota-bobolari istig‘for keltirmaganliklarini ko‘rsatish edi, alaloqibat biz barchamiz shatranj taxtasidagi piyodalarmiz, xolos.

Yillar o‘tib tomirida ko‘plab qabilalarning qoni jo‘sh urib oqayotgan Jis-Uk qaragan ko‘zni kuydiradigan sohibjamol bo‘lib balog‘atga yetdi. Go‘zalligi shunchalar betimsol, shunchalar sharqona ediki, har qanday etnologni shoshirib qo‘yardi. Har bir harakati chaqqon va nazokatli edi. Jonli tasavvur va tafakkuri keltlarga xos edi bu zeboning. Balki tomiridagi kelt qoni ruxsorining bug‘doyrangligiga sababdir, badanining oq sariqdan kelganligi uchun esa slavyanlar avlodi Shpak Bo‘rdoqidan minnatdor bo‘lmog‘i lozimdir. Bodomqovoqlar ostidan boquvchi shahlo ko‘zlar qora hamda oq irq to‘qnashuvining nishonasi edi. Tomirlardagi yugurgilab oqayotgan oq tanlilar qoni esa undagi nozik izzat-nafsni tug‘dirdi. Qolgan jabhalarda, rasm-rusum, hayotga bo‘lgan muhabbat bobida u g‘irt hindu edi.

Qaysidir yili qishda, hali Jis-Uk navnihol edi, uning hayotiga Niyl Bonner kirib keldi…

**Rus tilidan Saidjalol SAIDMURODOV tarjimasi**

**Ushbu QR-kod orqali hikoyaning davomini o‘qishingiz mumkin.**

Maktub

# MINNATDORMIZ

Bizlar – “Guliston” mahalla fuqarolar yig‘ini nuroniylari, faol xotin-qizlari va otinoyilari sevimli gazetamiz – “Yangi Bekobod”ning doimiy o‘quvchilarimiz. Uning har bir sonida e’lon qilinayotgan Prezidentimizning farmon va qarorlari, respublikamiz hamda tumanimizda amalga oshirilayotgan olamshumul islohotlar, yangiliklar, shuningdek, adabiyot va hordiq sahifalarida berib borilayotgan hikoya, she’r va lavhalar bizlarga ruh bag‘ishlaydi, har birimizni yoshlar bilan bir safda turib mehnat qilishga chorlaydi.

Ushbu satrlarni yozishimga sabab – o‘tgan yil oxirida “Nuroniy” jamg‘armasi tuman bo‘limi rahbari J.Bo‘rixo‘jayev biz bilan uchrashib, mahallamizdagi bir necha faol nuroniy va otinoyilarni sevimli gazetamiz – “Yangi Bekobod”ga bir yillik obuna qilganliklarini, bu ezgu tashabbus tuman hokimligi tomonidan amalga oshirilganini ma’lum qildilar. Biz bu e’tibordan be-had quvondik.

Fursatdan foydalanib, mazkur hayrli ishning boshida turgan tuman hokimligi rahbarlariga hamda “Nuroniy” jamg‘armasi tuman bo‘limiga o‘z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Shu o‘rinda, bizlar ham gazetamizning har bir sonini nafaqat to‘liq mutolaa qilib, balki undagi qarorlar, yangiliklar, e’lon qilinayotgan qiziqarli hikoya va she’rlarni farzandlarimizga, qolaversa, xonadonlarda bo‘lganimizda unda istiqomat qilayotgan nuroniy otaxon va onaxonlarga ham o‘qib berib, mazmun-mohiyatini keng targ‘ib etib bormoqdamiz.

**Malika hojiona ASRONQULOVA,**
**“Guliston” MFY “Buvijonlar maktabi” guruhi rahbari**

Oltin meros

#kun_hikmati #nodir_ovozlar

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi 7013.
Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. "Mash’al" mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO'RAQULOVA

ISSN 2091-5497